| <b>Рузиева Нилуфар Тулкин кизи</b>                                                                                                       |     |
| Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли.....                              | 725 |
| <b>Бибутова Шахло Саъдуллаевна</b>                                                                                                       |     |
| Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning afzalliklari va muammolari .....                              | 730 |
| <b>Axmedova Dilbar Buronovna</b>                                                                                                         |     |
| Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....                           | 734 |
| <b>Ishmanova Diana Nurmatdovna</b>                                                                                                       |     |
| Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari .....                                             | 737 |
| <b>Muxtorova Madina Azamat qizi</b>                                                                                                      |     |
| Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar.....                                                                 | 741 |
| <b>A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi</b>                                                                                               |     |
| Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari .....                                                                      | 746 |
| <b>Yodgorova Xalima To'liqinovna</b>                                                                                                     |     |
| Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....                                                                | 752 |
| <b>Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna</b>                                                               |     |
| Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.....                                               | 763 |
| <b>Djumabayeva Shaira Xalillayevna</b>                                                                                                   |     |
| Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....                                                                       | 769 |
| <b>Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna</b>                                                                         |     |
| Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rne .....                                                                 | 778 |
| <b>Valiyeva Sayyora Xushbaqovna</b>                                                                                                      |     |
| Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....                            | 784 |
| <b>Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li</b>                                                                   |     |
| Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri .....                                                   | 790 |
| <b>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi</b>                                                       |     |
| Trade Marketing in the Era of Social Media: Strategies for Attracting and Retaining Customers Through Social Media Platforms.....        | 795 |
| <b>Mamatkulova Shoirja Jalolovna</b>                                                                                                     |     |
| Mamlakatimiz to'qimachilik tarmog'ining zamonaviy holati va tendensiyalari.....                                                          | 800 |
| <b>Azizxon Tillyaxodjayev</b>                                                                                                            |     |
| Physical Activity and Education, Trends in the Sports Industry .....                                                                     | 807 |
| <b>Axtamov Djamshed Baxromovich</b>                                                                                                      |     |
| Davlat moliyaviy nazoratining amalga oshirishning metodologik masalalari.....                                                            | 812 |
| <b>Hakimov Nodir Nazarovich</b>                                                                                                          |     |
| Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilishning o'ziga xos jihatlari ..... | 818 |
| <b>Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich</b>                                                                                                |     |



# AVTOMOBIL YO‘LLARI TIZIMIDAGI TASHKILOTLARDA BUXGALTERIYA HISOB VA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

**Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich**

TDIU mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlari faoliyatini amalga oshirish va moliyalashtirishning yo‘nalishlari bayon qilingan. Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va ichki nazorat tizimini amalga oshirishning zarurligi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning amaldagi holati normativ huquqiy hujjatlar talablari asosida yoritilgan. Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlari faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib ichki nazorat tizimining amal qilish holati tadqiq qilingan. Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** avtomobil yo‘llari, axborot, buxgalteriya hisobi, ichki nazorat, mablag‘lar, moliyalashtirish, hisob siyosati, hisobot.

**Abstract:** This article describes the directions of implementation and financing of the activities of organizations in the highway system. The need to organize accounting and implement an internal control system in the organizations of the highway system is theoretically justified. The actual state of organization of accounting in the organizations of the highway system is covered based on the requirements of normative legal documents. Based on the characteristics of the organizations in the highway system, the functioning of the internal control system was studied. Proposals have been made for improving the practice of accounting and internal control system organization in the organizations of the highway system.

**Key words:** highways, information, accounting, internal control, funds, financing, accounting policy, reporting.

**Аннотация:** В данной статье описаны направления реализации и финансирования деятельности организаций дорожной сети. Теоретически обоснована необходимость организации бухгалтерского учета и внедрения системы внутреннего контроля в организациях дорожного хозяйства. Фактическое состояние организации бухгалтерского учета в организациях дорожного хозяйства освещено с учетом требований нормативных правовых документов. На основе особенностей организаций дорожной системы изучено функционирование системы внутреннего контроля. Внесены предложения по совершенствованию практики организации системы учета и внутреннего контроля в организациях дорожного хозяйства.

**Ключевые слова:** автомобильные дороги, информация, бухгалтерский учет, внутренний контроль, фонды, финансирование, учетная политика, отчетность.

## KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, aholi turmushining farovon bo‘lishi, tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini uzluksiz amalga oshirish bevosita zarur infratuzilmani yaratish bilan bog‘liqdir. Bunda, infratuzilmaning ajralmas qismi hisoblangan avtomobil yo‘llarini qurish, mavjudlarini ishchi holatda saqlash, ta‘mirlash alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyat hayotida aholining barcha qatlami, barcha tashkilot va korxonalar hamda mamlakatimizga tashrif buyuruvchilar doimo avtomobil yo‘llaridan foydalanadi. Shundan kelib chiqqan holda, avtomobil yo‘llari faoliyatini tizimli tashkil etish, maqsadli moliyalashtirish, samarali boshqarish masalasi hayotiy zaruriyat sifatida e‘tirof etish mumkin.

“O‘zbekistondagi jami avtomobil yo‘llar tarmog‘i 209 500 kilometrdan ziyod uzunlikda bo‘lib, undan 42869 kilometri umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, 141 883 kilometr ichki xo‘jaliklararo, qishloq, shahar va ovullarning avtomobil yo‘llari, 24 745 kilometr esa, idoraviy inspektorlik yo‘llari tarmog‘i hisoblanadi”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> <https://uzavtoyul.uz/activity/post/29?menuId=press-reliz&redirectUrl=/activity/news/press-reliz>



2024-yilda avtomobil yo'llari, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash, saqlash, ko'kalamzorlashtirish, tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, qo'mita va uning tuzilmasdagi tashkilotlarni saqlash maqsadida jami 5 484 823,6 mln. so'm<sup>2</sup> mablag' yo'naltirilishi belgilangan. Ushbu mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishi, ular bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan nazorat va hisobdorlik bevosita avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlar faoliyati bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini va ichki nazorat tizimini tashkil qilish zaruriyatini belgilab beradi. Shu bilan birga, avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi amaliyotini o'rganish, tahlil qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo qiladi.

## TADQIQOT USULLARI

Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish amaliyoti mavzusi doirasidagi izlanishlarda kuzatish, qiyoslash, analiz va sintez, deduksiya va induksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, manbalarni sharhlash, tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish borasida xorijlik hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Jumladan xorijlik olimlardan O.V.Mitina tomonidan davlat budjetidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, hisob obyektlarini tan olish, hujjatlashtirish va hisobini yuritish masalalari o'rganilgan <sup>[15]</sup>.

Hung Tang Tri va Thien Huu Nguyen tomonidan tashkilotlarda buxgalteriya hisobi axborot tizmi bilan ichki nazorat tizimining o'zaro bog'liqligi borasida izlanish olib borishgan. Bunda, ichki nazorat tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish buxgalteriya axborot tizimining to'g'ri ishlashiga xizmat qilishi, shuningdek, buxgalteriya axborot tizimining samarali ishlashi ichki nazorat tizimini boshqarishga olib kelishi asoslab berilgan. Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarining uzviy bog'liqligi jihatlari ochib berilgan <sup>[16]</sup>.

Yu.A.Kutirev tomonidan davlat sektorida ichki moliyaviy nazoratni takomillashtirish borasida izlanish olib borgan. Xususan, g'aznachilik sharoitida ichki nazorat va ichki auditning xususiyatlarini ochib bergan. Ichki nazorat va auditini amalga oshirishning usullari, tamoyillari, o'xshash va farqli jihatlari tizimlashtirilgan holda yoritgan <sup>[17]</sup>.

K.Ibragimovning ilmiy tadqiqotida budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tashkil etish masalalariga alohida ahamiyat berilgan bo'lib, bunda davlat sektorida tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra subyektlarning ikki turga ajratilishi hamda to'la yoki qisman budgetdan moliyaviy jihatdan ta'minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanishi <sup>[18]</sup> ko'rsatilgan.

B.K.Xamdamov va A.A.Ostonokulov tomonidan budget tizimi budgetlarida budget nazoratini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat obyektlari va ularning tarkibi, nazorat usullari va shakllari, budget nazoratini amalga oshirish bosqichlari, nazorat natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishni tizimlashtirilgan holda ifodalab berishgan <sup>[19]</sup>.


Sh.Qurbonov tomonidan davlat tibbiyot tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiq qilingan. Tadqiqotchi tibbiyot tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari hisobini takomillashtirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslab berishga harakat qilgan <sup>[20]</sup>.

Mazkur izlanishlarda olimlar tomonidan budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, nazorat va audit masalalari umumiy holda o'rganilgan. Ayrim hollarda ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar berilgan. Ammo, avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish yuzasidan izlanishlarda avvalo, normativ huquqiy hujjatlarni o'rganish zarur. Bu boradadagi normativ huquqiy hujjatlarni shartli ravishda katta ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi guruhga avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish hamda moliyalashtirish tartibini belgilab beruvchi hujjatlarni o'rganib chiqiladi. Ikkinchi guruhda esa, avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimiga oid normativ huquqiy hujjatlar tadqiq etiladi.

2 <https://lex.uz/en/docs/6707765#6710514>



1-rasm: Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar<sup>3</sup>

Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish hamda moliyalashtirish tartibini belgilab beruvchi hujjatlar. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktyabrdagi O'RQ-117-son "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonuniga asosan, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hamda Xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, shaharlarning, shahar posyolkalarining, qishloqlarning va ovullarning ko'chalarini moliyalashtirish mahalliy budjet mablag'lari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi <sup>[1]</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi PF-4954-son "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, jihozlash hamda ulardan foydalanish borasidagi tadbirlarni tasdiqlangan xarajatlarga muvofiq moliyalashtirish, Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari tushumi hamda sarfining yillik va choraklik hisobotlarini shakllantirish tartibi belgilandi. Respublika yo'l jamg'armasiga mablag'larni yig'ish va tushumlarning to'liqligini nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga, Davlat bojxona qo'mitasiga va Ichki ishlar vazirligiga hamda Respublika yo'l jamg'armasi mablag'laridan asosli va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklandi <sup>[2]</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrda PQ-4545-son "Yo'l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Avtomobil yo'llari qo'mitasini rivojlantirish va faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi daromadlari tarkibida chet davlatlar avtotransport vositalarining kirganligi va uning hududi orqali tranzit o'tishi uchun yig'im summasining 40 foizi, respublikaga kirib kelayotgan og'ir vaznli va/yoki yirik gabaritli transport vositalarining respublika hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit o'tishi uchun yig'imlar va to'lovlar, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining ajratilgan mintaqalarida joylashgan yer uchastkalarida va inshootlarida tashqi reklamani joylashtirish huquqi uchun yig'imlardan tushadigan mablag'lar aks etishi belgilangan <sup>[4]</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori bilan budjet, davlat maqsadli jamg'armasi va budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish, yo'l xo'jaligi sohasida xarajatlarni qisqartirish maqsadida zarur chora-tadbirlar belgilab berildi <sup>[5]</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2776-son "O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori orqali Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va uning tarkibiy tuzilishi maqbullashtirilib, ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish, tizimning samarali faoliyat yuritishiga qaratilgan Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, uning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarining namunaviy tuzilmalari belgilab berildi <sup>[6]</sup>.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi 924-son qarori orqali Avtomobil yo'llari qo'mitasining faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi hamda uning faoliyatini tartibga soluvchi nizom tasdiqlangan. Ushbu nizom bilan jamg'arma mablag'larini shakllantirish, jamg'arma mablag'larini boshqarish, jamg'arma mablag'larini sarflash tartiblari belgilab berildi. Shuningdek, mazkur qaror

3 Muallif tomonidan tuzilgan.

bilan "Avtomobil yo'llari qo'mitasi va unga idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlanib amaliyotga joriy etildi. Qo'mita va uning hududiy boshqarmalaridagi hodimlarni rag'batlantirish miqdorlari hamda ularni budjet mablag'lari, avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, budjetdan tashqari jamg'armalar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshirilishi belgilab qo'yildi [7].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi 295-son "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori asosida qo'mitaning asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va javobgarligi, qo'mita rahbariyatining asosiy funksional vazifalari hamda javobgarligi, o'mita faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartiblari belgilab berilgan [8].

Yuqorida keltirib o'tilgan normativ huquqiy hujjatlar asosida avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini 2-rasm orqali ifodalash mumkin.



2-rasm: Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari va xarajat yo'nalishlari<sup>4</sup>

Ushbu moliyalashtirish manbalari bilan bog'liq holda avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari smetalari tuziladi hamda davriy moliyalashtirib boriladi. Ushbu jarayonda Avtomobil yo'llari qo'mitasi va hamda uning xududiy boshqarmalari mablag'larni taqsimlaovchi sifatida qaralib, smetalar ijrosi bevosita avtomobil yo'llari tizimidagi budjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi hamda hisobi yuritiladi. Mazkur jarayonda mablag'larning maqsadli va manzilli yo'naltirilishi, ularning hujjatlashtirilishi tizim tashkilotlarida ichki nazorat tizimining to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq hisoblanadi.

Avtomobil yo'llari tizimidagi budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi qator huquqiy hujjatlar bilan tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 26-dekabrda 360-son "Budjet kodeksi" Qonuniga ko'ra, budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari tarkibi belgilanadi. Bundan tashqari, tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromalarning shakillanishi va ularning sarflanishi amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi 404-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan s'hu'ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobining subyektlari bo'lsa, asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va xarajalar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi esa, umumiy holda buxgalteriya hisobini, shuningdek, budjet jarayonini bir qismini tashkil qilib, foydalanuvchilarni davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi zaruriy moliyaviy axborotlar bilan ta'minlaydi.

Amaldagi buxgalteriya hisobi bo'yicha qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlat budjetida turadigan tashkilotlarning buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, O'zbekiston Respublikasining vazirlik va idoralari zarur hollarda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda, o'z tizimidagi tashkilotlarda faoliyat hususiyatlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobi va hisobotlarining umumiy qoidalarini qo'llash tartibi to'g'risida belgilangan tartibda me'yoriy hujjatlar chiqarishlari mumkin.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni va boshqa bir qator qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi 414-sonli "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaror bilan budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash manbalarini faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan, budjet

4 Muallif tomonidan tuzilgan.





tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budget tashkilotlariga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan qo'shimcha daromadlar olish hisobiga kengaytirish <sup>[10]</sup> tartibi belgilangan.

Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari budget va budgetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan (ro'yxat raqami 2634, 2014-yil 15-dekabr) tuzishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Mazkur nizomga muvofiq, budget tashkilotlarining "budgetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasida tushumlar manbaini ko'rsatgan holda budgetdan tashqari mablag'lar tushumlarining hajmi va mazkur mablag'lardan foydalanish yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda aniqlanishi, daromadlar va xarajatlar smetasining daromad qismi moliya yili boshidagi mablag'lar qoldig'i hamda daromadlarning manbalar kesimidagi prognozidan tashkil topishi <sup>[11]</sup> belgilangan.


O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 24-martdagi 21-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish" qoidalariga muvofiq (ro'yxat raqami 2772, 2016-yil 30-mart) budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari alohida shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda yuritilishi <sup>[12]</sup> belgilangan. Budget tashkilotlarining, shuningdek, avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarining mablag'lari hisobi, har bir moliyalashtirish manbasidan kelib chiqqan holda alohida shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda yuritiladi.

"Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnoma (O'z.R AV. tomonidan 2010-yil 22-dekabrda № 2169-son bilan ro'yxatdan o'tgan) hamda O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (2-sonli BHS) "Yagona schotlar rejasi" ga asosan avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha schotlar, subschotlar, buxgalteriya dastlabki va yig'ma hujjatlari hamda hisob registrlari ikki yoqlama yozuvda aks ettirish tartiblari keltirilgan. "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to'g'risidagi Nizom" (O'z.R AV. tomonidan 2004-yil 14-yanvarda № 1297-son bilan ro'yxatdan o'tgan)ga ko'ra avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida hisob obyektlari bilan bog'liq muomalalar hisobini hujjatlashtirishni tartibga solish tizimlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi budget hisobining "Hisob siyosati" nomli 1-son standarti (O'z.R AV. tomonidan 2016-yil 27-dekabrda № 2853-son bilan ro'yxatdan o'tgan)ga asosan barcha budget tashkilotlari qatorida avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari ham o'zining smetalar ijrosini amalga oshirish, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritishda ichki nazorat tizimini tartibga solish hamda tizimli buxgalteriya axborotlarni shakllantirish orqali samarali boshqaruvni joriy qilish uchun hisob siyosatini shakllantirishi zarur. Hisob siyosati belgilangan prinsiplarga muvofiq budget tashkilotlari tomonidan budget hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo'llaniladigan aniq uslublar, asoslar, yo'l qo'yishlar, qoidalar hamda usullar majmui <sup>[13]</sup> sifatida bir moliya yili davomida qo'llaniladi.

Hisob siyosati barcha savollarni qamrab olgan holda, hisob jarayonlari bilan bog'liqlikda, ya'ni budget tashkilotlari buxgalteriya hisobi tizimining maqsadlilikini ta'minlashi zarur. Puxta tuzilgan hisob siyosati bosh hisobchining yuqori malakali ekanligidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida kelgusida budget tashkilotining xo'jalik faoliyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Hisob siyosati O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, buxgalteriya hisobi subyekti faoliyat sohasiga oid nizomlar va standartlar asosida ishlab chiqiladi. Hisob siyosatini ishlab chiqishda uning tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi (3-rasm).



3-rasm: Hisob siyosatining tarkibiy jihatlar<sup>5</sup>

5 Muallif tomonidan tayyorlandi.



Buxgalteriya hisobi subyekti rahbari farmoyishiga asosan hisob siyosati hisobot yili oxirida ishlab chiqiladi va kelgusi moliya yili uchun tasdiqlanadi. Ushbu farmoyishga ko'ra bir vaqtning o'zida quyidagilar ham tasdiqlanadi:

- buxgalteriya xodimlarini lavozim yo'riqnomalari;
- sintetik va analitik schotlarni aks ettiruvchi buxgalteriya hisobi ishchi schotlari rejasi;
- hujjatlar aylanish tartibi va grafigi;
- mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarni baholash usullari;
- aktivlarni hisobdan chiqarish uslubi;
- inventarizatsiya o'tkazish tartibi va muddatlari;
- hisob axborotlarini qayta ishlash texnologiyasi va boshqa zaruriy hujjatlar.

Hisob siyosatini ishlab chiqish va uning tarkibiy tuzilishi barcha buxgalteriya hisobi subyektlari uchun umumiy jihatlarga ega bo'lishi mumkin. Ammo, avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob obyektlari, mablag'lari, mablag' manbalari, mablag'lardan foydalanish tartibi hamda daromad va xarajatlarni hisobda aks ettirish usullari bo'yicha farqli jihatlari mavjud (1-jadval).

**1-jadval: Buxgalteriya hisobi subyektlarida hisob siyosatini shakllantirish bilan bog'liq farqli jihatlari<sup>6</sup>**

| Xo'jalik yurituvchi subyektlari                                         | Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari                                                                       |
|-------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| HISOB OBYEKTлари                                                        |                                                                                                              |
| - uzoq muddatli aktivlar;                                               | - nomoliyaviy aktivlar;                                                                                      |
| - joriy aktivlar;                                                       | - moliyaviy aktivlar;                                                                                        |
| - majburiyatlar;                                                        | - debitor majburiyatlar;                                                                                     |
| - xususiy kapital;                                                      | - kreditor majburiyatlar;                                                                                    |
| - moliyaviy natijalar;                                                  | - moliyaviy natijalar;                                                                                       |
| - xarajatlar;                                                           | - xarajatlar;                                                                                                |
| - daromadlar.                                                           | - daromadlar.                                                                                                |
| DAROMAD VA XARAJATLARNI HISOBDA AKS ETTIRISH USULLARINING QO'LLANILISHI |                                                                                                              |
| Hisoblash usuli                                                         | Hisoblash va kassa usuli                                                                                     |
| MABLAG' MANBALARI                                                       |                                                                                                              |
| - o'z mablag'lari;                                                      | - budjet mablag'lari;                                                                                        |
| - jalb qilingan mablag'lar.                                             | - Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari;                                                                   |
|                                                                         | - Avtomobil yo'llari qo'mitasining faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari; |
|                                                                         | - rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;                                                                    |
|                                                                         | - boshqa budjetdan tashqari mablag'lar.                                                                      |

Xo'jalik yurituvchi subyektlar va avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqish bilan bog'liq farqli jihatlari mavjud. Shu jihatdan, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun hisob siyosatini ishlab chiqish bo'yicha alohida standart ishlab chiqilganligi asosli. Ammo, avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarining hisob obyektlari, mablag'lari, mablag' manbalari, mablag'lardan foydalanish tartibi hamda daromad va xarajatlarni hisobda aks ettirish usullari bo'yicha farqli jihatlari mavjud. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bilan bog'liq alohida hisob siyosati ishlab chiqilishi va buning uchun hisob siyosatiga oid standart qabul qilinishi kerak.

"Hisob siyosati" nomli 1-son BHS standarti avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarining moliyaviy hisobotlariga bo'lgan ishonchlilik darajasini va ma'lum bir davriylikdagi moliyaviy hisobotlarini, shuningdek, boshqa avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari bilan o'zaro solishtirish darajasini oshirishga mo'ljallangan.

Hisob siyosati avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari tomonidan budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida mavjud o'zaro bir-birini istisno etuvchi bir nechta hisob yuritish usullaridan birini tanlash maqsadida tuziladi. Bu standart avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida hisob siyosatini tanlash va qo'llash, hisob siyosatiga o'zgarishlarning hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo'llanilishi lozim.

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.



Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida moliya xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda buxgalteriya hisobining muhim usuli hisoblangan inventarizatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Inventarizatsiya avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari buxgalteriya hisobi axborotlarining ishonchligini ta'minlash, moddiy qiymatliklarning but saqlanishi va majburiyatlarning holatini nazorat qilishga xizmat qiladi.

Inventarizatsiya avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari amaliyotida doimiy amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan biri bo'lib, hozirgi zamon talabidan kelib chiqib unga qo'yilayotgan vazifalar asosida uning o'ziga xos jihatlari hamda nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Nazariy jihatdan inventarizatsiya nazorat qilishning bir elementi hisoblansa, amaliy jihatdan inventarizatsiyani o'tkazish jarayonida nazorat amalga oshiriladi. Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida inventarizatsiya rejali tartibda hisob obyektlarining turlari yuzasidan quyidagi davrlar bo'yicha o'tkaziladi (2-jadval).

**2-jadval: Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida hisob obyektlari bo'yicha rejali inventarizatsiyani o'tkazishning davriyligi<sup>7</sup>**

| Hisob obyektlari                                                        | Rejali inventarizatsiyaning o'tkazilish davri |
|-------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------|
| Asosiy vositalar                                                        | Ikki yilda kamida bir marotaba                |
| Kutubxona fondlari                                                      | Besh yilda bir marotaba                       |
| Nomoddiy aktivlar                                                       | Ikki yilda kamida bir marotaba                |
| Tovar-moddiy zaxiralar                                                  | Yilda kamida bir marotaba                     |
| Yonilg'i-moylash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari                  | Har chorakda bir marotaba                     |
| Pul mablag'lari, pul hujjatlari, boyliklar va qat'iy hisobdagi blanklar | Har oyda bir marotaba                         |

Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari hisob siyosatida belgilash orqali yillik moliyaviy hisobotlarni tuzishdan oldin rejali tartibda to'liq inventarizatsiya o'tkazishlari mumkin. Rejadan tashqari esa, mol-mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda, moddiy javobgar shaxslar almashganda, o'g'irlik yoki suiste'mol, tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar yoki favqulodda vaziyatlar yuz berganda, avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari faoliyati tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

## XULOSA

Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari faoliyat xususiyatidan kelib chiqib ularning moliyalashtirish manbalari, mablag'larni sarflash yo'nalishlari boshqa sohadagi budget tashkilotlardan farq qilishini alohida ta'kidlash zarur. Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari Avtomobil yo'llari qo'mitasi uning hududiy boshqalari va ular tasarrufidagi korxona hamda tashkilotlardan iborat. Ushbu tizim tashkilotlari va ularga tegishli korxonalar notijorat hamda tijorat maqsadlarida faoliyat olib boradi. Qo'imita va uning hududiy boshqarmalari budget tashkiloti sifatida notijorat faoliyatni amalga oshiradi. Korxonalar esa, xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida tijorat faoliyatini amalga oshirib buyurtmalarni bajaradi. Ushbu yo'nalishdagi tashkilot va korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning alohida xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Shu boisdan, aynan, notijorat faoliyat bilan shug'ullanuvchi budget tashkiloti hisoblangan qo'mita va uning hududiy boshqaralarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil etish masalasi alohida o'rganildi.

Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari moliyaviy ta'minot manbalari va mablag'lar sarfining amalga oshirilishi yo'nalishlari har bir moliyalashtirish manbalari bilan bog'liq holda hisob ishlarini yuritish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida maqsadli mablag'larning kelib tushishi va ularning xarajat qilinishini nazoratini amalga oshirish bu borada ham alohida tahliliy hisob ishlarini yuritishni talab etadi.

Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobi obyektlari, ularning vujudga kelishi, tan olinishi, hujjatlashtirilishi va hisobga olinishi jarayonini soddalashtirish, ular to'g'risida axborotlarni umumlashtirish tahlil qilish, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini taqqoslash maqsadlarida tizimi tashkilotlari uchun buxgalteriya hisobi prinsiplari va qoidalarini o'zida jamlagan hisob siyosatini shakllantirishni taqozo etmoqda. Hisob siyosati avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, tizim tashkilotlari faoliyatida ichki nazoratni ta'minlash, hisobdorlikni ta'minlash va javobgarlikni aniq belgilashga xizmat qiladi.

<sup>7</sup> "Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish" nomli 19-son BHMS asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktyabrda "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi O'RQ-117-son Qonuni. [uza.uz/posts/surxondaryoda-ham-yollar-ravon-...](http://uza.uz/posts/surxondaryoda-ham-yollar-ravon-...)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4954-son Farmoni. [lex.uz/docs/3114302](http://lex.uz/docs/3114302)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi yo'l xo'jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5890-son Farmoni. [lex.uz/docs/4634786](http://lex.uz/docs/4634786)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrda "Yo'l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillash-tirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4545-son qarori. [lex.uz/docs/4634768](http://lex.uz/docs/4634768)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrda "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori. [lex.uz/uz/pdfs/6634309](http://lex.uz/uz/pdfs/6634309)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevralda PQ-2776-son "O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. [lex.uz/docs/3121497](http://lex.uz/docs/3121497)
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrda 924-son "O'zbekiston Respublikasi Trans-port vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi nizomni hamda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi va unga idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tas-diqlash haqida"gi qarori. [lex.uz/docs/4602540](http://lex.uz/docs/4602540)
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-mayda 295-son "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. [lex.uz/uz/docs/4818723](http://lex.uz/uz/docs/4818723)
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevralda 49-son "Avtomobil yo'llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. [lex.uz/docs/4818723](http://lex.uz/docs/4818723)
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrda "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'min-lash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-son qarori. [lex.uz/docs/319286](http://lex.uz/docs/319286)
11. "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom (2014-yil 15-dekabr, ro'yxat raqami 2634).
12. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish qoidalari (ro'yxat raqami 2772, 2016-yil 30-mart).
13. O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (1-sonli BHS) "Hisob siyosati" (2016-yil 27-dekabr, ro'yxat raqami 2853).
14. "Inventarlarni tashkil etish va o'tkazish" nomli 19-son BHMS.
15. Митина О.В. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. Учебное пособие. 2020 г. 138 стр.
16. Tang Tri Hung - Nguyen Huu Thien - Nguyen Hieu Trung - Le Thuy Dung. Relationship between accounting information system and internal control system. TAI P CHÍ CO ANG THO ONG. Tháng 8/2017.
17. Кутырев Ю.А. Совершенствование контроля в бюджетной сфере в условиях принятия Федеральных стандартов внутреннего финансового аудита. Вестник Евразийской науки. –2020, №6, том 12.
18. Ibragimov K.Sh. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta'lim muassa-salari misolida). i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – T. 2018. –54 b.
19. Hamdamov, B. K., & Ostonokulov, A. A. (2018). Byudjet nazorati. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-Moliya". –318 b.
20. Qurbonov Sh.M. Davlat tibbiyot tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – T. 2022. –58 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.